

## BUGUNGI KUNDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI KADRLARINING MEDIAKOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH USTUVOR VAZIFA SIFATIDA

Abdusalomova Xadicha G'ayratjon qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pe-dagogika Universiteti  
muhandislik va dizayn nazariyasi mutaxassisligi 1-kurs magistanti

### Annotatsiya:

Bugungi rivojlanayotgan zamonda ta'lim sifatini yanada takomillashtirish, shuningdek, o'qitish tizimida ilgari qo'llanilmagan yangicha metod-usullardan foydalanish maqsadida, avvalo, har bir pedagog kadrlarning mediasavodxonligini oshirish dolzarb masalalardan biri ekanligi ushbu maqolaning tub mazmunini tashkil etadi.

**Kalit so'zlar:** Mediakompetentlik, oliy ta'lim, yosh kadr, axborot, metodika, ko'rsatkich, didaktika, strategiya, pedagogik, ilmiy yangilik, modellashtirish, modul, kreativlik, yondashuv.

Bugun biror bir soha yo`qki, axborot-kommunikasiya texnologiyalari kirib bormagan. Axborot texnologiyalarisiz hech qaysi sohani tasavvur etish qiyin. Shu jumladan, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda ham u muhim omillardan biriga aylanmoqda. Shu sababli oliy ta'lim muassasalari talabalarining ham mediakompetentligini rivojlantirish hozirgi davrning eng muhim masalalaridan biridir. Elektron aloqa vositalari, internet, sun'iy yo'ldoshlar aynan ommaviy axborot vositalarining jadal sur'atlarda rivojlanishi pedagog xodimlarning tinmay o'z ustida ishlashini talab qilmoqda. Globallashtirish jarayonida gazetalar, jurnallar, radio, televideniye, fotografiya, hujjatli va badiiy kino, axborot agentliklari, internet, global tarmoqdagi axborot resurslarining son jihatdan beqiyos o'sishi, sifat jihatdan sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Kompyuter, faks, "uyali" telefon, parabolik antenna, elektron pochta kabi texnik mo'jizalar ommaviy axborot vositalari rivojiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda zamon talabiga mos yuksak intellektual salohiyatli, zamonaviy bilim va malakaga ega, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar tayyorlash uchun beqiyos imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu borada axborot-kommunikasiya texnologiyalari vositalari hisoblanmish – mediadan ta'lim jarayonida foydalanishning istiqbolli yo'nalishlaridan keng foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Ta'lim jarayonida media,



ya'ni, internet, televideniye, radio, kino, video, telefon va boshqa aloqa vositalari o'z samarasini ko'rsatmoqda.

Alexander Fedorov fikricha, mediasavodxonlik bu jarayonning natijasi sifatida insonga axborot imkoniyatlaridan faol foydalanishga yordam beradi, televideniya, radio, video, kino, matbuot va Internet tomonidan taqdim etilgan soha.

Media va axborot savodxonligi – “soyabon”, ya'ni bir tushuncha mazmunida ikki ma'no birlashgan atama sifatida YUNESCO tomonidan tavsiya etilgan. Uning mohiyatini anglash uchun har bir tushuncha o'zagini bilish zarur.

O'z fikrini aniq bayon eta olish, uni asoslab tahlil qila olish, voqea va hodisalarni turli nuqtai-nazardan ko'rib chiqish masalasi- mediasavodxonlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Demak, bugun oliy ta'lim muassasalari talabalarini mediakompitentligini rivojlantirgan holda mediata'lim sirlarini nazariy jihatdan puxta o'rganib, ta'lim jarayonidagi amaliyotda yetarli darajada qo'llash maqsadga muvofiqdir. Axborot kommunikasiyaning globallashuvi sharoitida ta'lim jarayonida o'ziga xos talablar paydo bo'lmoqda. Bu talablar bevosita mediakompitentlik bilan chambarchas bog'liqdir.

Kompitentlik-ma'lum bir holat xususida to'g'ri mulohaza yuritish imkoniyatini beradigan bilimga ega bo'lish, dalil isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama.

Ba'zi olimlar «kompetentlik»ni amaliy va nazariy bilimlar, kognitiv qobiliyatlar, xatti-harakatlar va ish faoliyatini yaxshilash uchun foydalaniladigan qadriyatlarning kombinatsiyasi deb biladilar yoki yaxshi malakaga ega bo'lish, muayyan rolni bajarish qobiliyatiga ega bo'lish holatidir. Masalan, boshqaruv kompetensiyasi tizimli fikrlash va hissiy intellektni, ta'sir qilish va muzokaralar olib borish ko'nikmalarini o'z ichiga olishi mumkin.

Kompitentlik (Competence) bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kompetentsiya juda murakkab va keng qamrovli tushunchani qamrab oladi va turli olimlar kompetentsiyaga turli xil ta'riflarga bergan.

Mediakompitentlik tushunchasi (media competence) ta'lim sohasiga kirib kelayotgan yangi atama hisoblanib u media ma'lumotlarni turli ko'rinishda uzatish va baholash, o'rganish, yetkaza bilish kabi ma'nolarni o'z ichiga oladi.

Mediakompitentlik tushunchasining ildizlarini Dieter Baackening “Muloqot va kompetensiya” (1973/1980) gabilitatsion dissertatsiyasida topish mumkin, unda kommunikativ kompetensiya tushunchasi birinchi marta ishlab chiqilgan. Chomskiyning lingvistik kompetensiya kontsepsiyasiga (1972) va Habermasning kommunikativ kompetensiya nazariyasi loyihasiga (1971) murojaat qilib, Baacke



kommunikativ kompetentsiyani «til va xulq-atvor kompetensiyasi» sifatida shakllantirdi. Shunday qilib, media kompetentsiya «muloqot va harakat repertuari uchun barcha turdagi ommaviy axborot vositalaridan faol ravishda foydalanish» qobiliyatini ifodalaydi

Mediakompitentlik – bu insonning turli shakllarda media matnlarini tanlash, foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va uzatishga tayyorligida namoyon bo'ladigan integral sifati, turlari, shakllari va janrlari, jamiyatdagi ommaviy axborot vositalari faoliyatining murakkab jarayonlarini tahlil qilish. Mediakompitentlik tushunchasi ko'p qirrali. Chunki, u ham bilimni, ham faoliyat usullarini, ham shaxsiy xususiyatlarni ifodalaydi, u bir emas, balki bir nechta doirada faoliyat ko'rsatadi. Ilmiy sohalar va fanlararo xususiyatga ega. Mediakompitentlik ko'p funksiyali, chunki uni o'zlashtirish kasbiy, ijtimoiy va kundalik hayotdagi vazifalardir. Mediakompitentlik media-ta'lim doirasida ishlab chiqilgan: mediasavodxonlik (media literacy), mediamadaniyat (media culture) tushunchalariga asoslanadi. Bu shuni tushuntiradiki, ba'zida mediakompitentliyi media savodxonligining sinonimi sifatida tushuniladi, masalan: media kompetensiyasi / media savodxonligi ((media competence/media literacy) «Xabarlardan (messages) foydalanish, tahlil qilish, baholash va turli xil muloqot qilish qobiliyati shakllari.» Ko'pgina davlatlarda mediakompitentlikni o'rganishda bu tushuncha ustunlik qiladi.

Adabiyotlarda “mediakompitentlik” mavzusiga oid turli atamalar mavjud bo'lib, mamlakatlarda u turlicha tushuniladi. Ommaviy axborot vositalari, axborot, raqamli, audiovizual va IT ta'lim shartlari bir-birining o'rnida ishlaydi. Bu texnologiyaning jadal rivojlanishi, axborotni uzatish shakllari va usullarining xilma-xilligi, shuningdek, ushbu jarayonlarning barcha faol ishtirokchilari bo'lgan qabul qiluvchilarning o'zlariga bo'lgan munosabatning o'zgarishi bilan bog'liq. Biroq, bu bir-biriga o'xshab ketadigan sohalarni, jumladan, «OAV va axborot ta'limi» umumiy atamasi bilan (bu masala bilan turli xil ifoda va aloqa vositalari, turli xil axborot va ommaviy axborot vositalarini birlashtirgan holda) turli yondashuvlarga ishora qilish kerak.

Xorij pedagogikasida mediakompitentlik atamasi (nem. Medienkompetenz, ing. Media competence va hokazo) allaqachon faol foydalanib kelinmoqda. Masalan: Baacke, 1999; Blumeke, 2000; Potinger, 1997. Germaniyada mediakompitentlik deb, mediaga nisbatan malakali, mustaqil, ijodiy va ijtimoiy-mas'uliyatli munosabat tushuniladi.



O'qituvchi mediakompitentligi (educator's mediacompetence) – matbuot vakolatlari, uning sabablari, bilim, ko'nikma va malakalariga (ko'rsatkichlari: motivatsion, axborot, amaliy-tezkor, uslubiy faoliyati, ijodiy) ega bo'lib, barcha yoshdagi ta'lim oluvchilarga mediata'lim bilimlarini targ'ib qilish.

Mediakompitentlik “OAVga nisbatan malakali, mustaqil, ijodiy va ijtimoiy mas'uliyatli harakat qilish” qobiliyatini anglatadi. Yana bir tadqiqotda mediakompitentlikning shakllanishiga asos bo'ladigan 5 ta ko'nikmalar bloki, jumladan, ommaviy axborot vositalari taqdim etayotgan narsalarni tanlash va undan foydalanish; o'z media-mahsulotini ishlab chiqish va h.k.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mediakompitentlikni rivojlantirish hozigi globallasuv davrining muhim vazifalaridan biriga aylandi. Mediakompitentlik o'qituvchilarning faoliyati davomida media makondan axborot va mediamatnlardan to'g'ri tanlay olishi va samarali foydalanishi muhim o'rin tutadi. Mediakompitentlikda media-ta'lim faqat faktik va yo'naltirilgan bilimlarni o'zlashtirish bilan chegaralanib qolmaydi – garchi bu yangi media hodisalarini tasniflash uchun ham muhim hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Komp'yuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikasion texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni //“Xalq so'zi” gaz. – T.: 2002. (06.02.2002 y.). – B.1.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O'zbekiston, 2017. – 24 b.
5. Abdullaeva Q.M. Maxsus fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituv-chilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari.–T.: 2006. –182 b
6. Абсалямова И.Р. Формирование основ профессиональной компетентности будущего дизайнера в условиях технического колледжа: дис. ...канд.пед.наук. – М.: 2007. – 166 с.
7. Алексеев Н.А. Личностно-ориентированное обучение в школе. – Ростов н/Д: Феникс, 2006. – 332 с.

